




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-iyun)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm, fizik hajm indeksi, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-iyun oyida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 5 444,7 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020 - yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 109,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 96,026 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida 10,3 % ga o'sishning kuzatilishi bo'lsa, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 4,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida - 1,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarini utilizatsiya qilishda – 8,2 % ga kamayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** – *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,1 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,021 % ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 228,3 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,026 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 44,6 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 23,7 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 18,0 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 44,6 %.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 23,7 %.



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi - 18,0 %.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoati



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 164,7 mlrd. so'm (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,024 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 98,5 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,929 % ni) tashkil etdi. Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash – 67,5 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish – 32,2 % tashkil etdi.





Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-iyun	2020 - yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:	90,2	195,3	-105,1
Issiqlik energiyasi – ming Gkal:	47,6	59,7	-12,1
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobilarsiz) – dona:	28772,0	26687,0	2085,0
Maxsus yengil avtomobillar – dona:	6230,0	3478,0	2752,0
Aroq – ming litr:	37,2	201,2	-164,0
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr:	4,8	7,9	-3,1
Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr:	301,8	357,4	-55,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:	45223,2	46231,5	-1008,3
Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:	13775,7	6438,0	7337,7
Xo‘jalik sovuni – tonna:	2752,5	2318,0	434,5
Paxta tolasi – tonna:	34343,7	31584,8	2758,9
Paxta chigit – tonna:	65110,8	53514,5	11596,3


Sanoat mahsulotlari	2021 - yil yanvar-iyun	2020 - yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Paxtadan yigirilgan ip – tonna:	14830,2	13226,1	1604,1

Tarkibida 85 % yoki undan ko‘p paxta tolasi bo‘lgan ip gazlamalar – ming kv.m:

12139,0 11645,0 494,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 105,1 mln. kVts. ga, issiqlik energiyasi 12,1 ming Gkal. ga, aroq 164,0 ming litrga, uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari 3,1 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 55,6 ming litrga, yumshoq bug‘doy va spelta uni 1 008,3 tonnaga kamaygan.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2020 - yil yanvar-iyun oylarida o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 6,8 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 - yil yanvar-iyun oylarida bu ko‘rsatkich 5,3 % ga, o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 46,2 % dan 45,9 % ga kamaygan bo‘lsa, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,15 % dan 0,21 % ga, quyi texnologiyali ishlab chiqarishning 41,5 % dan 44,5 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 11,4 mld. so‘mlik (2020 - yil yanvar-iyun oylarida 6,8 mld. so‘m), o‘rta-yuqori

texnologiyali tarmoqda 2 501,5 mlrd. soʻmlik (2 055,7 mlrd. soʻm), oʻrta-quyi texnologiyali tarmoqda 290,1 mlrd. soʻmlik (303,4 mlrd. soʻm), quyi texnologiyali tarmoqda 2 425,3 mlrd. soʻmlik (1 844,2 mlrd. soʻm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.




Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar nomi	2021 - yil yanvar-iyun mlrd. soʻm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	5444,7	109,5
Urganch shahri	918,7	110,0
Xiva shahri	65,8	102,3
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bogʻot tumani	216,8	106,0
Gurlan tumani	254,4	115,8
Qoʻshkoʻpir tumani	186,0	156,9
Urganch tumani	328,7	114,0
Hazorasp tumani	164,2	110,3
Tuproqqaʼa tumani*	2512,4	105,6
Xonqa tumani	260,1	105,4
Xiva tumani	81,0	66,4
Shovot tumani	293,6	106,4
Yangiariq tumani	93,0	59,7
Yangibozor tumani	70,0	106,4


Yuqoridagi jadvalning tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, Tuproqqaʼa tumani, Urganch shahri, Bogʻot, Gurlan, Qoʻshkoʻpir, Urganch, Yangibozor, Shovot, Hazorasp va Xonqa tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatlari yuqori darajada rivojlangan.

Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2020 - yil yanvar-iyunga nisbatan Qo'shko'pir tumanida 156,9 %, Gurlan tumanida 115,8 %, Urganch tumanida 114,0 %, Hazorasp tumanida 110,3 %, Urganch shahri 110,0 %, Shovot tumanida 106,4 %, Yangibozor tumanida 106,4 %, Bog'ot tumanida 106,0 %, Tuproqqa'l'a tumanida 105,6 %, Xonqa tumanida 105,4 %, Xiva shahrida 102,3 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI
2020 - YIL YANVAR-IYUN OYLARIGA NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 46,1 %), Urganch shahri (16,9 %), Urganch (6,0 %), Shovot (5,4 %), Xonqa (4,8 %), Gurlan (4,7 %), Bog'ot (4,0 %) hamda Qo'shko'pir (3,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumani (1,5 %), Yangibozor tumani (1,3 %) va Xiva shahriga (1,2 %) to'g'ri kelmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish (mlrd. so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2021 - yil yanvar-iyun	2020 - yil yanvar-iyun
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	5444,7	4448,0
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1,1	0,9
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	1,1	0,9
Ishlab chiqaradigan sanoat	5228,3	4210,1
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	796,9	633,5
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	183,9	132,4
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1288,2	943,9
Kiyim ishlab chiqarish	27,4	27,4
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	1,7	2,7
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallari, ishlab chiqarish	16,0	13,0
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	45,3	27,4
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,6	0,7


Iqtisodiy faoliyat turlari:	2021 - yil yanvar-iyun	2020 - yil yanvar-iyun
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,2	0,2
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	10,1	20,4
Asosiy farmasevtika	11,3	6,6
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	45,0	42,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	153,9	141,8
Metallurgiya sanoati	15,4	25,8
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	67,4	84,5
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,2
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	11,1	10,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	53,2	10,3
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	2427,1	2014,2
Mebel ishlab chiqarish	17,4	13,1
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	47,7	50,1
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	8,1	8,6
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	164,7	201,4
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	50,6	35,6



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida, viloyatda 3 360,1 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 - yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etdi.

2021 - yil yanvar - iyun



Oziq-ovqat mahsulotlari

2020 - yil yanvar - iyun



Nooziq-ovqat mahsulotlari

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 864,9 mlrd. so'mni, alkogol ichimlikar 4,3 mlrd. so'mni va 2 490,9 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2020 - yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 112,4 %, 46,7 % va 107,9 % ni tashkil qildi va jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 61,7 % ni (2020 - yil yanvar- iyun oylarida 68,0 %) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 185,6 mlrd. so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 1 969,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan va 335,5 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021 – yilning yanvar-iyun oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	3360,1	100,0	111,1
Urganch shahri	500,2	14,9	129,4
Xiva shahri	52,1	1,6	120,1
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	103,2	3,1	118,1
Gurlan tumani	85,4	2,5	100,8
Qo'shko'pir tumani	49,5	1,5	118,0
Urganch tumani	113,3	3,4	97,7
Hazorasp tumani	45,2	1,3	111,9
Tuproqqal'a tumani	2037,7	60,6	107,9
Xonqa tumani	175,1	5,2	110,3
Xiva tumani	36,0	1,1	90,1
Shovot tumani	70,3	2,1	112,4
Yangiariq tumani	40,8	1,2	116,2
Yangibozor tumani	51,3	1,5	127,8

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib – 60,6 % ni, Urganch shahrida 14,9 % ni, Xonqa tumanida 5,2 % ni, Urganch tumanida 3,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (111,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (129,4 %), Yangibozor tumanida (127,8 %), Xiva shahrida (120,1 %), Bog'ot tumanida (118,1 %), Qo'shko'pir tumanida (118,0 %), Yangiariq tumanida (116,2 %), Shovot tumanida (112,4 %) va Hazorasp tumanida (111,9 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021 - yilning yanvar-iyun oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	864,9	100,0	122,4
Urganch shahri	326,8	37,8	138,7
Xiva shahri	16,0	1,9	90,1
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog'ot tumani	71,1	8,2	115,0
Gurlan tumani	71,3	8,2	150,4
Qo'shko'pir tumani	26,0	3,0	131,6
Urganch tumani	76,0	8,8	102,4
Hazorasp tumani	28,0	3,2	140,2
Tuproqqa'l'a tumani	10,4	1,2	104,5
Xonqa tumani	117,2	13,6	107,8
Xiva tumani	20,0	2,3	79,2
Shovot tumani	45,6	5,3	110,2
Yangiariq tumani	20,1	2,3	106,7
Yangibozor tumani	36,4	4,2	139,0

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib – 37,8 % , shuningdek, Xonqa tumanida 13,6 %, Urganch tumanida 8,8 %, Gurlan tumanida 8,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Gurlan tumanida (150,4 %), Hazorasp tumanida (140,2 %), Yangibozor tumanida (139,0 %), Urganch shahrida (138,7 %), Qo‘shko‘pir tumanida (131,6 %) kuzatildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati
(2021 - yilning yanvar-iyun oylarida)**

Shahar va tumanlar nomi	Mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020 - yil yanvar-iyun nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2490,9	100,0	107,9
Urganch shahri	169,1	6,8	119,4
Xiva shahri	36,1	1,4	140,9
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	32,1	1,3	125,7
Gurlan tumani	14,1	0,6	37,8
Qo‘shko‘pir tumani	23,5	1,0	105,8
Urganch tumani	37,3	1,5	89,2
Hazorasp tumani	17,2	0,7	84,3
Tuproqqa'l'a tumani	2027,4	81,4	107,9
Xonqa tumani	57,9	2,3	115,7
Xiva tumani	16,0	0,6	109,0
Shovot tumani	24,6	1,0	116,7
Yangiariq tumani	20,7	0,8	127,2
Yangibozor tumani	14,9	0,6	106,9

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri keldi (81,4 %), shuningdek, Urganch shahrida 6,8 % ni, Xonqa tumanida 2,3 % ni va Urganch tumanida 1,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (107,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Xiva shahri (140,9 %), Yangiariq tumani (127,2 %), Xonqa tumani (115,7 %), Bog'ot tumani (125,7 %), Urganch shahri (119,4 %), Shovot tumani (116,7 %) tashkil qildi.




Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari

ishlab chiqarishning o'sish sur'ati

(2020 - yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, % da)

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2020 - yil yanvar- iyun oylariga nisbatan Urganch shahrida (129,4 %), Yangibozor tumanida (127,8 %), Xiva shahrida (120,1 %), Bog'ot tumanida (118,1 %), Qo'shko'pir tumanida (118,0 %), Yangiariq tumanida (116,2 %), Shovot tumanida (112,4 %), Hazorasp tumanida (111,9 %), Xonqa tumanida (110,3 %), Tuproqqa'l'a tumanida (107,9 %), Gurlan tumanida (100,8 %) sezilarli darajada o'sgan.

Pasayish Urganch tumanida (97,7 %), Xiva tumanida (90,1 %) kuzatildi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish
(2021 - yil yanvar- iyun oylarida, ming so‘m)**

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari	2020 - yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da	Iste’mol mahsulotlari	2020 - yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2 867,4	107,9	1 769,6	109,5
Urganch sh.	6 325,5	109,1	3 444,0	128,4
Xiva sh.	701,8	100,7	555,2	118,2
<i>shundan tumanlar,</i>				
Bog‘ot	1 297,3	104,2	617,3	116,1
Gurlan	1 697,0	114,4	569,7	99,5
Qo‘shko‘pir	1 068,1	155,0	284,5	116,6
Urganch	1 625,6	111,8	560,2	95,8
Hazorasp	836,5	108,6	230,4	110,2
Tuproqqał'a	45 080,6	104,3	36563,2	106,5
Xonqa	1 377,2	103,8	927,1	108,7
Xiva	548,4	65,3	243,9	88,6
Shovot	1 705,9	104,9	408,4	110,8
Yangiariq	792,0	58,9	347,0	114,6
Yangibozor	791,9	105,1	580,6	126,3

Yuqorida tahliliy jadvalga asosan, joriy yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 2 867,4 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 107,9 % ga darajada kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020-

yil yanvar-iyun oylarida Urganch shahrida 5 074,5 ming so‘mdan 6 325,5 ming so‘mga, Bog‘ot tumanida 920,4 ming so‘mdan 1 297,3 ming so‘mga, Gurlan tumanida 1 256,3 ming so‘mdan 1 697,0 ming so‘mga, Qo’shko’pir tumanida 602,8 ming so‘mdan 1 068,1 ming so‘mga, Urganch tumanida 1 056,6 ming so‘mdan 1 625,6 ming so‘mga, Hazorasp tumanida 674,3 ming so‘mdan 836,5 ming so‘mga, Tuproqqa'l'a tumanida 38 391,8 ming so‘mdan 45 080,6 ming so‘mga, Xonqa tumanida 1 149,9 ming so‘mdan 1 377,2 ming so‘mga, Shovot tumanida 1 421,0 ming so‘mdan 1 705,9 ming so‘mga, Yangibozor tumanida 392,4 ming so‘mdan 791,9 ming so‘mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa'l'a tumanida (45 080,6 ming so‘m), Urganch shahrida (6 325,5 ming so‘m) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (2 867,4 ming so‘m) yuqoriligi kuzatilgan.


Aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo‘yicha 1 769,6 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,5 % ga o‘sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020 - yil yanvar-iyun oylarida Urganch shahrida 2 682,1 ming so‘mdan 2021 - yil yanvar-iyun oylarida 3 444,0 ming so‘mga, Xiva shahrida 469,6 ming so‘mdan 555,2 ming so‘mga, Bog‘ot tumanida 531,6 ming so‘mdan 617,3 ming so‘mga, Qo’shko’pir tumanida 244,1 ming so‘mdan 284,5 ming so‘mga, Hazorasp tumanida 209,2 ming so‘mdan 230,4 ming so‘mga, Tuproqqa'l'a tumanida 34 318,6 ming so‘mdan 36 563,2 ming so‘mga, Xonqa tumanida 853,3 ming so‘mdan 927,1 ming so‘mga, Shovot tumanida 368,7 ming so‘mdan 408,4 ming so‘mga, Yangiariq tumanida 302,7 ming so‘mdan 347,0 ming so‘mga, Yangibozor tumanida 459,8 ming so‘mdan 580,6 ming so‘mga o‘sgani kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa'l'a tumanida (36 563,2 ming so‘m), Urganch shahrida (3 444,0 ming so‘m) aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1 769,6 ming so‘m) yuqoriligi kuzatilgan.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021- yil yanvar- iyun oylarida, % da)

Viloyatda yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 193,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyl ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,9 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat

mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida Tuproqqa'l'a tumani (3,8 %), Shovot tumani (18,6 %), Urganch shahri (20,7 %) va Qo'shko'pir tumanida (24,7 %) kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Yangibozor tumani (100 %), Yangiariq tumani (100,0 %) Urganch tumani (47,9 %), Bog'ot tumani (47,7 %), Xonqa tumani (39,2 %), Gurlan tumani (34,0 %), Hazorasp tumani (29,4 %) hissasiga to'g'ri kelgan.




Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 689,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 12,7 % ni tashkil etdi.





Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra)

Viloyatda 2021- yilning 1- iyul holatiga, 4 024 ta sanoat korxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 814 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 20,2 %) Urganch shahriga, 470 tasi (11,7 %) Urganch tumaniga, 360 tasi (8,9 %) Xiva shahriga, 344 tasi (8,5 %) Xonqa tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.



2021 - yil yanvar - iyun oylarida viloyatda 580 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi. Ulardan 98 tasi Urganch shahrida, 86 tasi Hazorasp tumanida, 56 tasi Urganch tumanida, 54 tasi Xonqa tumanida, 45 tasi Xiva shahrida, 40 tasi Xiva tumanida tashkil etilgan.





Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi bo'yicha 110 ta loyiha mavjud bo'lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar - iyun oylarida 106,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur korxonalar tomonidan 1 948 ming AQSh dollarlik mahsulot eksport qilinib, 335 ta yangi ish o'rnlari yaratilgan.

Dastur bo'yicha shahar va tumanlar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahrida 26 ta loyihada 9,815 mlrd. so'mlik, Gurlan tumanida 3 ta loyihada 0,249 mlrd.so'mlik, Urganch tumanida 11 ta loyihada 12,642 mlrd.so'mlik, Tuproqqa'l'a tumanida 18 ta loyihada 47,519 mlrd.so'mlik, Xiva tumanida 4 ta loyihada 1,505 mlrd.so'mlik, Shovot tumanida 6 ta loyihada 26,388 mlrd.so'mlik, Yangiariq tumanida 3 ta loyihada 5,388 mlrd.so'mlik, Yangibozor tumanida 6 ta loyihada 1,576 mlrd.so'mlik, Qo'shko'pir tumanida 3 ta loyihada 1,1 mlrd.so'mlik, Hazorasp tumanida 12 ta loyihada 0,003 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

	<i>2021 - yil yanvar-iuyun</i>	<i>2020 - yil yanvar-iuyun</i>
Loyihalar soni, birlik	110	32
Korxonalar soni, birlik	87	23
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm	106,6	40,5

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Sanoat statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99